

**O‘zR FA SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019. San.51.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘zR FA SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI

MO‘MINOVA ZULFIYAXON IBROHIMOVNA

TOSHKENT DUTOR IJROCHILIK AN‘ANALARI

17.00.02 – Musiqa san‘ati

**SAN‘ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

**San‘atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по искусствоведению**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)
on art sciences**

Mo‘minova Zulfiyaxon Ibrohimovna Toshkent dutar ijrochilik an‘analari	3
Муминова Зулфияхон Иброхимовна Исполнительские традиции Ташкентского дутара.....	21
Mo‘minova Zulfiyaxon Ibrohimovna Traditions of Tashkent dutar performance	41
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	45

**O‘zR FA SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019. San.51.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘zR FA SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI

MO‘MINOVA ZULFIYAXON IBROHIMOVNA

TOSHKENT DUTOR IJROCHILIK AN’ANALARI

17.00.02 – Musiqa san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida B2021.2.PhD/San140 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi San’atshunoslik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.fineartins.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turg‘unova Nasiba Mamatovna

San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Rasmiy opponentlar:

Tashmatova Azatgul Raximovna

San’atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor.

Xudoyev G‘anijon Muhammadovich

San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlari akademiyasi San’atshunoslik instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.02/30.12.2019.San.51.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “__” _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100029, Toshkent shahri, Mustaqillik maydoni, 2. Tel.: (+99871) 339-46-67; faks: (+99871) 239-17-71. e-mail:siti1928@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zR FA San’atshunoslik instituti kutubxonasida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100029, Toshkent, Mustaqillik maydoni, 2. Tel.: (+99871) 339-46-67)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “__” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “__” _____ dagi № _____ - raqamli bayonnomasi).

A.A.Hakimov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
san’atshunoslik fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
akademigi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi
akademigi

A.X.Ismoilov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), katta ilmiy xodim

I.A.Muxtarov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, san’atshunoslik fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon musiqa madaniyatida cholg‘u ijrochiligi san‘ati sozandalarning ijodiy faoliyati negizida yuzaga kelgan ijro maktablari va uslublariga asoslangan holda rivojlanmoqda. Xordofonlar kategoriyasiga mansub cholg‘u ijrochilik san‘ati har bir xalqning o‘ziga xos milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini ohanglar orqali ifoda etuvchi vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Avlodlardan avlodga o‘tib kelayotgan sozandalik san‘ati havaskor va kasbiy soha vakillarining ijodiy faoliyati natijasida turli uslubga ega ijrochilik maktablarini rivojlantirishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo musiqashunoslik ilmidagi Markaziy Osiyo xalqlarining musiqiy merosini tadqiq etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Tadqiqotlarda cholg‘ularning tuzilishi, shakli, tovushqatorlari va sozandalarning ijrochilik maktablari, ijrochilik bilan bog‘liq genezisi, ijodiy tendensiyalariga urg‘u berilmoqda. Dutor ijrochilik an‘analarining hududlar kesimidagi talqini sozandalar maktabi va uslublarini, o‘zbek bastakorlari va kompozitorlari tomonidan maxsus yaratilgan asarlarni tarixiy xronologiya asosida tadqiq qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbek musiqa san‘atida uslub va maktablar qorishishi, o‘ziga xalqlar cholg‘ulari ijro uslublarining dutorda qo‘llanilishi (pizz, tremolo, mediatordan foydalanish) yangi ijro uslublarini yuzaga keltirmoqda. Shuningdek, bir nechta sozandalarning uslubidan foydalanish mahalliy dator ijrochilik maktablarining yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zbekiston musiqashunoslik ilmidagi dator ijrochilik an‘analarini tadqiq etish zaminida cholg‘uning ayrim aspektlari va sozandalarning ijodiy faoliyati empirik izlanishlarga asoslangan holda olib borilmoqda. “O‘zbek mumtoz va folklor san‘atining noyob namunalarini, o‘ziga xos ijro maktablari, an‘analarini asrab-avaylash va rivojlantirish tizimi yaratilgan. O‘zbek milliy maqom san‘ati markazi va muzeyi tashkil etildi. Har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san‘ati anjumani hamda Xalqaro baxshichilik san‘ati festivalining o‘tkazilishi noyob merosimizning nufuzini jahon miqyosida oshirish yo‘lida muhim amaliy qadam bo‘ldi”¹. O‘zbekiston musiqashunoslik ilmi doirasida dator ijrochiligi bo‘yicha sozandalarning ijro talqini, uslubi, maktablari va “ustoz-shogird” an‘analarini tadqiq etish, natijalarni ta‘lim tizimiga joriy qilish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son “Madaniyat va san‘at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta‘sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017-yil 17-noyabrdagi PQ-3391-son “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-4638461>

iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dutor ijrochilik an'alarining tarixiy nazariyasi xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek dutorining yakka va jamoaviy ijrochiligida sozandalarning o'ziga xos talqinlari, ijro dasturlari AQSH va Hindiston davlatlarida qisman o'rganilgan. Xususan, Theodore Levin², Smita Tewari Jassal³ va Tanya Merchant⁴larning ilmiy-izlanishlarida Turg'un Alimatov, Malika Ziyayeva hamda Rozibi Xojiyevlar ijrochilik an'alarining ma'lum jihatlariga umumiy to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, mavzu doirasida Zaynulobidin bin Muhammad ibn Mahmud al-Husayniy⁵ "Qonuni ilmy va amalii musiqy" (XV asr) nomli risolasining 16-bobida du-tor kabi ikki torli cholg'u va uning yuqori va pastki torlarida tovush hosil qilinishi, Darvish Ali Changiyning⁶ "Risolai musiqiy" (XVII asr) asarida, nafaqat bastakorlik an'analari va musiqaning turli shakllari, balki o'z davrining mohir sozandalari haqida yoritilgan.

O'zbekistonda XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida dutor cholg'usining tuzilishi, sozlanishi, ijro uslublari, qayta takomillashtirish jarayonlari haqida A.Eyxgorn⁷, A.Fitrat⁸, V.M.Belyayev⁹, N.N.Mironov¹⁰, T.S.Vizgo¹¹, O.A.Bochkaryova¹², I.Rajabov¹³, J.Rasultoyev¹⁴, F.Karomatov¹⁵, O.Ibrohimov¹⁶,

² Levin T. The Hundred Thousand Fools of God: Musical Travels in Central Asia (and Queens, New York). – Bloomington: Indiana University Press, 1996. – XXIV. – 320 p.

³ Jassal S.T. Unearthing Gender: Folksongs of North India. – Durham & London: Duke University press, 2012. – 296 p.

⁴ Merchant T. Women Musicians of Uzbekistan. – New York: University of Illinois Press, 2015. – 3, 5, 7, 17, 24, 27, 43, 60, 69, 70, 80, 104, 187 p.

⁵ Зайнулобидин Махмуди Хусайни. Қонуни илмӣ ва амалии мусиқӣ / Таҳия, таҳқиқ ва факсимилеи дастнавис ва тавзеҳоти Раҷабов А. Бо замимаи тарҷимаи русии рисола аз Семенов А.А. Таҳия ва сарсухан ба қалами Айни. Мухаррири масъул Зухуриддинов. – Душанбе: Дониш, 1987. – саҳ 57.

⁶ Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII века). Семенов А.А / Ред. Е.Е.Романовская Сокращённое изложение перс. текста. – Ташкент: Из-во АН Уз, 1946. – С. 54, 63, 73.

⁷ Музыкальная фольклористика в Узбекистане. Август Эйхгорн. Музыкально-этнографические материалы / Под редакцией В.М.Беляева. – Ташкент: Издательство АН УЗССР, 1963. – С. 175-176, 189.

⁸ Fitrat A. Teatru va muzika "Xalima" operasi. – Toshkent: 1920. 29.09. № 199. 2-bet. stun: I – 4. – B. 231-232.

⁹ Беляев В.М. Музыкальные инструменты Узбекистана / Ред. Л. Калтат. – Москва: Государственное музыкальное издательство, 1933. – С. 59-68.

¹⁰ Миронов Н. Музыка узбеков. – Самарканд: нотопечатня Гиза, 1929. – С. 15.

¹¹ Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. Исторические очерки / Под научной редакцией Ф.М.Кароматова, Г.А.Пугаченковой. – Москва: Музыка, 1980. – С. 91.

¹² Бочкарёва О.А. Музыкальные инструменты Узбекистана и закономерности мелодики узбекской народной инструментальной музыки. Диссертация на соискание ученой степени кандидата искусствоведения. – Ташкент: 1969. Библиотека Института искусствознания АН РУз. Инв. №. 523. – С. 29, 30, 31.

¹³ Rajabov I. Maqomlar / Nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir O.Ibrohimov. – Toshkent: San'at, 2006. – B. 28; Rajabov I. Sharq atamalarining qisqacha lug'ati / Nashrga tayyorlovchi maxsus muharrir va izohlar muallifi O.Ibrohimov. – Toshkent: Tamaddun, 2023. – B. 63-64.

¹⁴ Rasultoyev J. O'zbek dutor ijrochiligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – 111 b.

¹⁵ Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. Наследие. – Ташкент: Издательство литературы в искусства им. Гафура Гуляма, 1972. – С. 105, 111, 123.

¹⁶ Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqi ijodi. Metodik tavsiyalar. 1-qism. – Toshkent: Ibn Sino, 1994. – B. 53.

R.Yunusov¹⁷, O.Matyakubov¹⁸, B.Matyaqubov¹⁹, R.Sultonova²⁰, S.Murtozova²¹, N.Turg'unova²²larning ishlarida o'rganilgan.

Dutor ijrochiligining o'quv jarayoni uchun – M.A.Asilov, F.N.Vasilev²³, A.Ilyosov²⁴, O.Qosimov²⁵, G'.Qo'chqorov²⁶, M.Inoyatov²⁷, M.Ergashev²⁸, B.Rahimjonov²⁹, Sh.Rahimov³⁰, M.Safarova³¹, M.Ziyayeva³², R.Xojiyeva³³, G.Muxamedova³⁴, I.Toshpo'latova³⁵, M.Muxamedova³⁶, F.Muminova³⁷, N.Xayrullayev³⁸, U.Yunusov³⁹, N.Turg'unova⁴⁰, S.Kulmatovalarning⁴¹ o'quv uslubiy adabiyotlarida umumiy ma'lumotlar (turli xildagi ijrochilikda qo'llaniladigan zarblar hamda ularning nota matnidagi ayrim ifodaviy belgilari, o'zbek, rus va qardosh xalqlarning asarlari) berib o'tilgan bo'lib, Toshkent dutor ijrochilik an'analari yaxlit mavzu sifatida tadqiq etilmagan.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqot ishlari mazkur dissertatsiyani yozishda muhim asos bo'ldi. Toshkent dutor ijrochiligi ustoz-shogird an'analari, an'anaviy va zamonaviy ijro uslublari, dutorning jamoalardagi o'rni ilmiy-tadqiqot sifatida ilk bora o'rganilmoqda.

¹⁷ Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. Monografiya / Ilmiy muharrir O.Ibrohimov. – Toshkent: YUNESKO, 2005. – B. 55, 75, 79, 80, 176.

¹⁸ Matyakubov O. Xorazm dutor maqomlari va olti yarim maqomi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 240 b.

¹⁹ Matyoqubov B. Doston navolari. Ilmiy nashr. – Toshkent: Building print, 2009. – B. 8.

²⁰ Sultonova R. THE MUSIC OF CENTRAL ASIA. Female Musicians in Uzbekistan Otin-oy, dutarchi, and maqomchi. – Indiana University Press, 2015. – 421- 434 p

²¹ Murtozova S.B. XIX asr oxiri – XX asrning 80-yillarida O'zbekiston musiqa madaniyatidagi transformatsiya jarayonlari.: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O'zR FA asosiy kutubxonasi, 2018. – B.13.

²² Turg'unova N. Farg'ona vodiysi yallachilik san'ati. Monografiya. – Namangan, Fazilatorgtexservis, 2016. – B. 13, 30, 54, 92, 239, 254.

²³ Asilov M.A., Vasileyev F.N. Dutor darsligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1977. – 120 b.

²⁴ Ilyosov A. Dutor o'rganish kitobi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1966. – 107 b.

²⁵ Qosimov O. Dutor navolari. I kitob. To'plam. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 1980. – 64 b; Dutor navolari. II kitob. To'plam. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 1983. – 54 b; Dutor taronalari. To'plam. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 30 b.

²⁶ Qo'chqorov G'. Dutor sadolari. To'plam. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 1987. – B. 87; Qo'chqorov G'. Sevinch. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Arnaprint, 2007. – 78 b.

²⁷ Inoyatov M. Dutorga oshufta ko'ngil. Qo'llanma. – Toshkent: OAJ "ITM", 2007. – 102 b.

²⁸ Ergashev M. Ko'ngil guldastasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: OTIS, 2005. – B. 3-40; Ergashev M. Hayotim dutori. Monografiya. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. – 107 b.

²⁹ Rahimjonov B. Dutorchilar ansambli. Darslik. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 2002. – 64 b.

³⁰ Rahimov Sh. Dutor. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Rizograf, 2004. – 103 b.

³¹ Safarova M. Dutor mutaxassisligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: KO'HI-NUR, 2004. – 114 b.

³² Ziyayeva M. Dutor. O'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Tahrir-nashriyot bo'limi, 2008. – 77 b; Ziyayeva M. Dutor. O'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Musiqa, 2011. – 88 b.

³³ Xojiyeva R. Dutor taronalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Musiqa, 2007. – 78 b; Xojiyeva R. Dutorim-sozim manim. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1999. – 64 b

³⁴ Muxamedova G. Dutor darsligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 198 b; Muxamedova G. Dutor. Qo'llanma. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi, 2003. – 49 b; Muxamedova G. Dutor o'rganish alifbosi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 51 b.

³⁵ Toshpo'latova I. An'anaviy dutor ijrochiligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Kelajakka qadam, 2004. – 79 b; Toshpo'latova I. An'anaviy cholg'u ijrochiligi (Dutor). O'quv qo'llanma. – Toshkent: Musiqa, 2017. – 124 b.

³⁶ Muxamedova M. Dil nolasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Zamon poligraf, 2015. – 47 b.

³⁷ Muminova F. Xorazm dutor taronalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Musiqa, 2013. – 50 b

³⁸ Xayrullayev N. Zokirjon Obidov (Sehrli soz sohibi). O'quv uslubiy qo'llanma – Toshkent: Fan ziyosi, 2021. – 76 b.

³⁹ Yunusov U. Xalq cholg'ularida ijrochilik (Dutor). O'quv qo'llanma. – Toshkent: Musiqa, 2021. – 143 b.

⁴⁰ Turg'unova N.M. Dutor cholg'usi ijrochiligi xususida // O'zDSMI Xabarlari. – Toshkent: 2020. № 2 (14). – B. 35-39; Turg'unova N. Cholg'u ijrochiligi (Dutor). O'quv qo'llanma. – Namangan: Fazilatorgtexservis, 2020. – B. 7, 10, 12, 13, 19.

⁴¹ Kulmatova S. Dutor. Uslubiy qo'llanma – Toshkent: Musiqa, 2010. – 65 b.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zR FA San‘atshunoslik institutining ilmiy tadqiqot ishlar rejalariga muvofiq “O‘zbek musiqa madaniyatida an‘ana va zamonaviy tamoyillarning o‘zaro ta‘sirini tadqiq etish” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Toshkent dutor ijrochilik an‘analarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dutor ijrochilik an‘analarining kelib chiqish omillari, tarixiy rivojlanish jarayonlari va uning taraqqiyot bosqichlarini aniqlash;

O‘zbekiston bastakorlari va kompozitorlari tomonidan dutor va uning oilasi uchun yaratilgan asarlar talqinida sozandalarning ijro uslublarini aniqlash;

Toshkent dutor ijrochilik an‘analariga xos sozandalarning ijro uslublari hamda maktablarini aniqlash va tasniflash;

yakka va jamoaviy ijrochilikda dutorning o‘rni hamda ijro dasturlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent dutor ijrochilik an‘analari belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Toshkent dutor ijrochilik san‘atida ustoz va shogird munosabatlariga asoslangan ijro uslublari, dasturlari va maktablari, bastakor hamda kompozitorlar tomonidan yaratilgan asarlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda qiyosiy tasniflash, tavsiflash, sinxron va diaxron yondashuv, tahliliy usullar qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asrning ikkinchi yarmida dutor ijrochiligi sozandalarning yakka tartibdagi talqinlarining murakkablashuvi, qardosh va chet el musiqiy asarlarini moslashtirish tendensiyalari natijasida pozitsiya va applikaturaga oid empirik va ratsional bog‘lanish vujudga kelganligi isbotlangan;

dutor ijrochilik san‘atida sozandalar talqini mahalliy uslublar kesimidagi *oddiy, terma, tanavor, o‘rama rez, teskari* zarblar, qopqoqqa urish, tovushga urg‘u berib ijro etish usullari an‘ana sifatida bastakor va kompozitorlarning asarlarida ham odatga aylanganligi, chap qo‘l harakatlarida – uzun va qisqa *forshlag, kashish, miyang‘, mordent, qo‘shmordent, glissando* singari musiqiy melizmlarning qo‘llanilishi dalillangan;

Toshkent dutor ijrochiligida 1930–1950-yillardan e‘tiboran qardosh mamlakatlar, o‘zbek va jahon kompozitorlarining murakkab uch qismli shaklda yaratilgan fantaziya, rondo, variatsiya, konsert janrlaridagi asarlar an‘anaviy (ipak torli) hamda qayta ishlangan (jilkali) dutorlar ijro dasturidan o‘rin olganligi sababli o‘ng va chap qo‘l zarblarining murakkablashganligi aniqlangan;

Toshkent dutor ijrochilik an‘analari namoyandalaridan O.Qosimov talqinida shaxdamlik, zarblarga aniq urg‘u berib, mordent bilan ijro etish, terma zarb va kuchli hissalarini bo‘rttirib ko‘rsatish holatlari, F.Sodiqov ijrosida mayinlik, sadoli miyang‘, terma zarbning ohangga mos qo‘llanilishi, T.Alimatov ijrosida o‘rtacha tezlikda, o‘ng qo‘l zarblaridagi nomsiz va ko‘rsatkich barmoqlar bilan ipak torlarini silab ijro etish, N.Qulabdullayev ijrosida vibratsiya (vib), ritmdagi qisqa pauzalar, keskin harakatlar va doyraning usulini qopqoqqa chertish orqali imitatsiya qilish, A.Hamidov talqinida aniqlik, shahdam va kosaxonaga tekkizish, ba‘zida tovushning kuchsiz hissalarini dinamik jihatdan kuchaytirishda bosh barmoqda *aksent* bilan ham yuqoriga zarb berish

singari ijro uslublari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dutor ijrochilik an'analarini "ustoz-shogird" tizimiga asoslanganligi hamda yakka va jamoaviy ijrochilikda dutorning o'zini hamda ahamiyatini yoritishga, keksa avlod vakillari va mahalliy sozandalar bilan suhbatlarni tashkil etish, ijodiy faoliyati hamda ijro dasturlari haqida ma'lumotlar to'plashga, magnit tasmlar va boshqa texnik vositalarda jamlangan musiqiy namunalarni nota yozuviga o'tkazish, tizimli tahlil qilishda muhim manba bo'lishi asoslangan;

zamonaviy dutor ijrochilik maktabini aniqlashga, professional va havaskor jamoalar tomonidan tashkil etilgan sozandalar va dutorchilar ansambllarining ijodiy faoliyatini yuritish uchun zarur o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratishga, Toshkent dutor ijrochilik an'analarini targ'ib etish va ommalashtirish, "ustoz-shogird" an'analarini kelgusi avlodga yetkazish, ko'rik-tanlovlar, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, konsert dasturlarini tashkil etishga xizmat qilishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi musiqashunoslik ilmi va ijrochilik san'atiga oid materiallar tahlil etilganligi, Toshkent dutor ijrochiligining o'ziga xos uslublari mavjudligini qiyoslash metodlari, tasniflash, tavsiflash usullari bilan asoslanganligi, mavzuni tadqiq etishda audio-yozuvlar, arxiv materiallari, keksa sozandalar bilan o'tkazilgan suhbatlarga tayanilganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda aprobatidan o'tganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda muhokama qilinganligi, OAK ro'yxatidagi milliy hamda xorijiy ilmiy nashrlarda maqolalar chop etilgani, ilmiy xulosa va yangiliklarning amaliyotga joriy etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Toshkent dutor ijrochilik san'atining tarixiy, nazariy, ijro uslubining amaliyotga joriy etish spesifikasiga, tipologik xususiyatlariga doir ma'lumotlarni kengaytirishga, sozandalarning ijro talqinidagi turfa zarblarning qo'llanilishi san'atshunoslik, etnomusiqashunoslik va cholg'ushunoslik (organologiya), nomoddiy-madaniy meros sifatida ommalashib borishiga zaruriy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyada bayon etilgan ma'lumotlar dutor ijrochilik an'analarining o'ziga xos jihatlarni yoritishda sozandalarning an'anaviy va akademik ijro dasturlarini tahlil qilishga, bastakorlar va kompozitorlar ijod namunalarining badiiyligini oshirishga, o'zbek dutor ijrochilik san'ati bo'yicha "Xalq cholg'ularida ijrochilik", "Maxsus cholg'u", "Ijrochilik san'ati tarixi" kabi fanlar bo'yicha o'quv uslubiy qo'llanmalar, darsliklar va monografiyalar yaratishda qo'shimcha manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Toshkent dutor ijrochilik an'analarining tadqiqoti yuzasidan olingan ilmiy natijalari asosida:

XX asrning ikkinchi yarmida dutor ijrochiligi sozandalarning yakka tartibdagi talqinlarining murakkablashuvi, qardosh va chet el musiqiy asarlarini moslashtirish tendensiyalari natijasida pozitsiya va applikatoraga oid empirik va ratsional bog'lanish vujudga kelganligi isbotlangani, dutor ijrochilik san'atida sozandalar talqini mahalliy uslublarning kesimidagi *oddiy, terma, tanavor, o'rama rez, teskari* zarblar, qopqoqqa urish, tovushga urg'u berib ijro etish usullari an'ana sifatida bastakor va kompozitorlarning asarlarida ham odatga aylanganligi, chap qo'l harakatlarida – uzun va qisqa *forshlag, kashish, miyang', mordent, qo'shmordent, glissando* singari musiqiy melizmlarning

qo‘llanilishi dalillangani bilan bog‘liq xulosalar, taklif va tavsiyalardan “O‘zbekiston” teleradiokanali DUK “O‘zbekiston” radiokanali orqali efirga uzatilgan “Soz sehri”, “Musiqada hayot nafasi”, “Betakror ijrolar”, “Musiqiy ensiklopediya” turkum eshittirishlarning kompozitsion sayqalida va senariyning badiiyligini oshirishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2021-yil 14-oktabrdagi 01-61-21-son ma‘lumotnomasi). Natijada radio tinglovchilar ustoz sozandalarning talqin yo‘llari va “ustoz – shogird” an‘analari haqidagi tasavvurning shakllanishiga xizmat qilgan;

Toshkent dutor ijrochiligida 1930–1950-yillardan e‘tiboran qardosh mamlakatlar, o‘zbek va jahon kompozitorlarining murakkab uch qismli shaklda yaratilgan fantaziya, rondo, variatsiya, konsert janrlaridagi asarlar an‘anaviy (ipak torli) hamda qayta ishlangan (jilkali) dutorlar ijro dasturidan o‘rin olganligi sababli o‘ng va chap qo‘l zarblarining murakkablashganligi aniqlangani bilan bog‘liq taklif va tavsiyalardan “O‘zbekiston bastakor va kompozitorlarining ijod namunalari bolalar talqinida” mavzusidagi ijodiy uchrashuvlarda foydalanilgan (O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 01-04/31-65-son ma‘lumotnomasi). Natijada tinglovchilar an‘anaviy dutor va uning oilasi uchun yaratilgan asarlarning o‘ziga xos ijro uslublari haqida muhim ma‘lumotlarga ega bo‘lishgan;

Toshkent dutor ijrochilik an‘analarining namoyandalaridan O.Qosimov talqinida shahdamlik, zarblarga aniq urg‘u berib, *mordent* bilan ijro etish, *terma* zarb va kuchli hissalarini bo‘rttirib ko‘rsatish holatlari, F.Sodiqov ijrosida mayinlik, sadoli *miyang‘*, *terma* zarbning ohangga mos qo‘llanilishi, T.Alimatov ijrosida o‘rtacha tezlikda, o‘ng qo‘l zarblaridagi nomsiz va ko‘rsatkich barmoqlar bilan ipak torlarini silab ijro etish, N.Qulabdullayev ijrosida vibratsiya (vib), ritmdagi qisqa pauzalar, keskin harakatlar va doyraning usulini qopqoqqa chertish orqali imitatsiya qilish, A.Hamidov talqinida aniqlik, shahdam va kosaxonaga tekkizish, ba‘zida tovushning kuchsiz hissalarini dinamik jihatdan kuchaytirishda bosh barmoqda aksent bilan ham yuqoriga zarb berish singari ijro uslublari aniqlangani bilan bog‘liq xulosalardan “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmaning “Musiqiy faoliyat turlarining o‘ziga xos xususiyatlari” deb nomlangan mavzusida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil dekabrda 429-son buyrug‘iga asosan № 429-36 (UO‘K: 331.116.22. KBK: 889.015.002. Z 13. ISBN 978-9943-9453-4-0)). Natijada musiqa rahbarlari dutor ijrochilik an‘analari va sozandalarning o‘ziga xos talqini haqida yangi ma‘lumotlarga ega bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy konferensiyalarda, shundan, 1 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 5 ta ilmiy maqola nashr etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta jumladan, 4 ta respublika hamda 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, etti paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot masalalari shakllantirilib, dissertatsiya mavzusining hozirgi zamon san'atshunoslik ilm-fani taraqqiyotidagi dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi qayd etilgan, maqsad va vazifalar belgilangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, obyekt va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bayon etilgan, nashr qilingan maqolalar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Dutor cholg‘usi yozma manbalarda”** deb nomlangan birinchi bobi ikki bo‘limdan iborat. Ushbu bobning **“Dutor cholg‘usi tarixidan”** nomli birinchi bo‘limida dutor ijrochilik san'atining tarixiy asoslari va manbalar tahlili xronologik tarzda ko‘rib chiqilgan.

Dutor cholg‘usi va uning ijrochilik san'ati bilan bog‘liq tarixiy taraqqiyot bosqichlari arxeolog va musiqashunos olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida, risolalarda, tasviriy san'at yodgorliklarida, sopol haykalchalar va miniatyuralarda bayon etilgan. Jumladan, O‘zbekistonda keng tarqalgan dutorga o‘xshash cholg‘uning ilk ko‘rinishini 1960-yillar Toshkentdan 60 km uzoqlikdagi Kankadan topilgan. Arxeologik qazilmada loydan yasalgan ayol haykalchani ikki torli cholg‘u ushlagan holati (miloddan avvalgi III-II asrlar) tasvirlangan⁴².

O‘tgan davr mobaynida Markaziy Osiyo va Sharq allomalari tomonidan yaratilgan tarixiy risolalardan ma'lum bo‘lishicha, cholg‘u ijrochiligi san'atiga oid ma'lumotlar muayyan hudud va muhitning an'alarini aks ettiradi. Ayniqsa, IX-XIX asrlarda yashab ijod etgan sharq mutaffakkur olimlaridan Abu Nasr Forobiyning (873–950) “Kitob-ul-musiqiy al-kabir” (Musiqaga oid katta kitob), “Kalom fi al-musiqiy” (Musiqaga haqida so‘z), “Kitob al fi ixso al-iqo” (Ritmlar turkumlari haqida so‘z), Firdavsiyning (934–1024) “Shohnoma”, Abu Ali Ibn Sinoning (980–1037) “Kitob-ush-shifo” (Shifo kitobi), “Donishnoma” (Bilim kitobi), “Kitabun najat” (Najot kitobi), “Risalatun fi-ilmil-musiqiy” (Musiqiy ilmi haqida risola), Qutbuddin ash-Sheroziyning (1155–1204) “Durrat al-toj li-g‘urra ad-Diboj” (Ilmlar yig‘indisi), Safiuddin Urmaviyning (1217–1294) “Risalat ush-sharafiya” (Sharafli risola), “Kitab ul-advar” (Musiqaga va ritm doiralari kitobi), Abdurahmon Jomiyning (1414–1492) “Risolayi musiqiy” (“Musiqaga ilmi risolasi”), Zaynulobidin Mahmudi Husaynning (1463–1519) “Qonuni-ilmy va amalii musiqiy” (“Musiqaga ilmining amaliy va nazariy qonunlari”), Najmiddin Kavkabi Buxoriyning (1480–1535) “Risola dar bayoni duvozdah maqom” (“O‘n ikki maqom bayoniga bag‘ishlangan risola”), Hoja Abdulqodir bin G‘oibi al-Hofiz al-Marog‘iyning (XIV asr 2-yarmi–1434/35) “Kanz ul-alhon” (Kuylar xazinasi), “Jome-ul-alhon” (Kuylar majmuasi), “Maqosid-ul-alhon” (Kuylarning o‘rni) va Darvish Ali Changiyning (XVI-XVII) “Tuhfat-us-surur” (“Shodlik tuhfasi”) asarlarida musiqiy cholg‘ular, ularning amaliyotdagi o‘rni hamda mohir sozandalarning ijodiy

⁴² Musikgeschichte in Bildern. F.M.Karomatov, V.A.Meskeris, T.S.Vyzgo. Band II: Musik des altertums / lieferung 9. – В., – В. 139; Вызго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии. Исторические очерки / Под научной редакцией Ф.М.Кароматова, Г.А.Пугаченковой. – Москва: Музыка, 1980. – С. 36-37.

faoliyatlariga alohida to'xtalib o'tiladi⁴³.

Xususan, dutorga o'xshash shakldagi ikkita torli, dastasida o'n bitta pardali cholg'u – ilk marotaba XV asrda yashab ijod etgan olim Zaynulobidin bin Muhammad ibn Mahmud al-Husayniyning “Qonuni ilmy va amalii musiqy” nomli risolasida (XVI bob) yozib qoldiriladi⁴⁴. “Risolada tavsiflangan dutor hozirgi dutorlardan biroz farq qilgan, ya'ni uning dastasi kichikroq bo'lib, torlarining ikkisi ham kuy hosil qilishga mo'ljallangan ohangdor bo'lgan. ...Husayny o'zining “Qonuni...”da dutor deya ta'riflagan cholg'u hozirda ijro amaliyotimizda qo'llanilayotgan dutorning ayni o'zi emas, balki tanburning setor (uch torli), chortor (to'rt torli), panjtor (besh torli) kabi ikki torli (*du tor*) bir ko'rinishidir. Jumladan, Husayny mazkur cholg'uga quyidagicha izoh beradi: – “udga o'xshagan ikki torli soz ishlab chiqildi. Unda ikkita sim va o'nta parda bor. U mediator (mizrob) bilan chalinadi. Cholg'ularning tori ichakdan bo'lgan. Bu ikki simda ham maqom chalinadi. Har ikki sim o'n to'rtta pardaga bo'linadi. Safiuddin Urmaviyning o'n to'rt pardasini shu torda chiqarish mumkin. O'ntasi birinchi tordan, to'rttasi ikkinchi tordan olinadi. Ushshoq pardasini mana shu tarzda hosil qilish mumkin”⁴⁵.

Darvish Ali Changiyning “Risolai musiqiy” (XVII asr) asarida dutorning tut daraxtidan yasash va unga ipakdan tor taqilishi⁴⁶ va o'z davrining mohir sozandalaridan Yusuf Mavdudi, mashhadlik sozanda va bastakor Mirquliyning “Dutoriy” taxallusi bilan ijod qilganligi, Xoja Mahmud ben Isxak-i-Shexani xattotlik kasbi bilan shug'ullansada, o'z davrining yetuk sozandalari qatorida dutorda ham kuylar ijro etgan aytib o'tilgan⁴⁷.

Avgust Eyxgorn dutor ijrochilik san'atini ta'riflar ekan, ochiq torlari kvarta va kvintaga sozlanuvchi ikki torli, chimdib ijro etiladigan cholg'uning torlardagi tovushqatori va sozlanishdagi o'ziga xos o'zgarishlariga alohida to'xtalib o'tadi⁴⁸.

Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzodaning “Xorazm musiqiy tarixchasi” risolasida dutorning etakchi va jo'rnavor cholg'u sifatida azaldan foydalanilganligi haqida bayon etilgan⁴⁹.

A.Fitrat (1886–1938) dutor cholg'usi yakka va jamoaviy tarzda muhim o'rin tutganligini hamda tuzilishi va pardalariga, sozandalarning ijro mahoratiga to'xtalib o'tadi⁵⁰.

Dutor XV asrda yaratilgan ko'hna cholg'u bo'lib, “ustoz-shogird” an'anasi orqali

⁴³ Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B. 9,10,11,12; Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San'at, 2006. – B. 15, 17, 20, 21, 23, 25, 26, 35, 37.

⁴⁴ Зайнуллобидин Махмуди Хусайни. Қонуни илмӣ ва амалии мусиқӣ / Таҳия, таҳқиқ ва факсимилеи дастнавис ва тавзеҳоти Рачабов А. Бо замимаи тарҷимаи русии рисола аз Семенов А.А. Таҳия ва сарсухан ба қалами Айни. Муҳаррири масъул Зухуридинов. – Душанбе: Дониш, 1987. – саҳ 57.

⁴⁵ Turg'unova N.M. Cholg'u ijrochiligi (Dutor). O'quv qo'llanma. – Namangan: Fazilatorgtexservis, 2020. – B. 5.

⁴⁶ Turg'unova N.M. Cholg'u ijrochiligi (Dutor). O'quv qo'llanma. – Namangan: Fazilatorgtexservis, 2020. – 10 b.; Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII века). Семенов А.А. / Ред. Е.Е.Романовская Сокращённое изложение перс. текста. – Ташкент: Из-во АН Уз, 1946. – С. 89.

⁴⁷ Среднеазиатский трактат по музыке Дервиша Али (XVII века). Семенов А.А. – Ташкент: Из-во АН Уз, 1946. – С. 63.

⁴⁸ Музыкальная фольклористика в Узбекистане. Август Эйхгорн. Музыкально-этнографические материалы / Под редакцией В.М.Беляева. – Тошкент: Издательство АН УзССР, 1963. – С. 175-176, 189.

⁴⁹ Mulla Bekjon Rahmon o'g'li va Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Badiiy muharrir va nashrga tayyorlovchi san'atshunoslik fanlar nomzodi Matyoqubov B. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – 46 b.

⁵⁰ Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi / Nashrga tayyorlovchi Karimbek Xasan. Sharhlovchi Alibek Rustam. Muharrir Asror Samad. Ilmiy-omtabop adabiyot. – Toshkent: Fan, 1993. – B. 28, 29

bugungi kunga qadar rivojlanib, yanada sayqallanib kelmoqda. Xalq orasidan ko‘plab o‘z davrining mohir ijrochilari yetishib chiqdi. Bu kabi sozandalar esa, saroy san‘ati rivojiga munosib hissalarini qo‘shdilar. Saroy sozandalari bo‘lmish kasbiy soha mutaxassislari va havaskor ijrochilarning sa‘y-harakatlari natijasi o‘laroq, ularning o‘ziga xos ijro uslublari paydo bo‘la boshladi. Bu esa, davrlar o‘tishi bilan bir qator uslublari va maktablarning yuzaga kelishida asosiy poydevor vazifasini o‘tadi.

Ushbu bobning **“O‘zbek dutor ijrochilik an‘analari mahalliy uslublari kesimida”** deb nomlanuvchi ikkinchi bo‘limida Andijon, Farg‘ona, Namangan, Samarqand, Xorazm va Toshkent dutor ijrochilik an‘analari haqida so‘z yuritiladi.

Azaldan ma‘lumki, o‘zbek musiqa merosi 4 ta mahalliy uslub – Qashqadaryo-Surxondaryo, Samarqand-Buxoro, Xorazm va Toshkent-Farg‘onaga ajratiladi⁵¹. Lekin, J.Rasultoyev va A.Hamidovlar tomonidan mahalliy uslublari negizida emas, balki tahlillar, an‘analar, o‘ziga xos xarakterdagi xususiyatlariga tayangan holda Andijon, Toshkent, Samarqand, Xorazm dutor ijrochilik maktablariga ajratiladi⁵².

Ma‘lumki, J.Rasultoyev dutor ijrochilik maktablarini bir-biridan farqlashda sozandalar talqinidagi zarblarga asoslangan. Jumladan, *trel (bidratma)* zarbini o‘zlashtirishdan oldin *terma zarb*ni mukammal o‘rganish tavsiya qilingan. Lekin, Xorazmlik dutorchilardan Polvon Rasulov va Yusuf Jabborovlarning so‘zlariga ko‘ra *terma zarb* bu uslubda deyarli qo‘llanilmaydi. Chap qo‘l barmoqlarining ifoda vositasi hisoblangan tovushlar o‘rtasidagi o‘zaro uyg‘unlik *oddiy zarb* orqali amalga oshirilsa, Buxoro, Samarqand va Farg‘onada *oddiy zarb*ning ayrim tovushlari so‘fi barmoq (nomsiz) orqali ijro etiladi. Lekin, aynan tovushlarni uyg‘unlashtirish Xorazmda ko‘rsatkich barmoq bilan ifodalanadi. Musiqiy tovush va bezaklar asosan chap qo‘lning ko‘rsatkich va o‘rta barmoqlarida bajariladi⁵³.

Dutor ijrochilik san‘atining rivojlanish bosqichlarida o‘ziga xos sozandalik faoliyati bilan tanilgan ustozlarning ijodlarini tahlil qilar ekanmiz, ular orasida nafaqat uslub, balki maktablar yaratilgan. Biroq, qayd etish joizki, bu har ikkala faoliyat turini bir-biridan ayro holda tasavvur etish mushkuldir.

Andijon dutor ijrochilik an‘analarining vakillari sifatida Muhiddin Hoji Najmiddinov, Komiljon Jabborov, Qo‘zixon Madraximov, Hadyaxon Hamdamova, Usta Ro‘zimatxon Isaboyev, Samarqand dutor ijrochilik an‘analarini Hoji Abdulaziz Rasulov va Qori Siroj Yusupov, Xorazm dutor ijrochiligini Qurji ota Avazmatov, Hojixon Boltayev, Nurmamat Boltayevlarning ijodiy faoliyati o‘ziga xos ijro uslublari negizida yuzaga kelgan. Ijrochilik maktabi va uslub yaratgan sozandalarning maqsad va vazifalari bitta bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi, o‘rganish va targ‘ib qilish yo‘llari turlichadir. Chunki mahalliy dutor ijrochilik san‘ati har bir vodiy va vohalarning yashash sharoitidan kelib chiqqan holda, bir qator o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi.

“Toshkent dutor ijrochilik an‘analari” deb nomlanuvchi ikkinchi bob ikki bo‘limdan iborat bo‘lib, uning birinchi bo‘limi **“Dutor ijrochilik san‘atida sozandalar maktabi”** deb nomlanib, bunda Toshkent dutor ijrochilarining yirik namoyandalari haqida so‘z yuritiladi.

⁵¹ Karomatov F. O‘zbek xalqi musiqa merosi (Yigirmanchi asrda). 1-kitob. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1978. – B. 5.

⁵² Rasultoyev J., Hamidov A. Dutor. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B. 390.

⁵³ Rasultoyev J. O‘zbek dutor ijrochiligi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – B. 39-40.

Dutor ijrochiligida o'ng qo'l orqali turli zarblarni aniq va bejirim tarzda ifodalash muhim ahamiyatga ega. Ijro dasturidagi asarga texnik va badiiy sayqal berish, o'z uslubiga ega bo'lish, maktab yaratish uzoq muddat davom etadigan izlanishlar mahsulidir. Ayniqsa, bugungi kunda kasbiy soha vakillari orasida o'ziga xos ijro uslubi va maktab yaratgan yetuk sozandalar talaygina. Toshkent dator ijrochiligining o'ziga xos uslubi, "ustoz-shogird" an'analari asosida meros qolishi natijasida, maktab miqyosida yoritishga ega bo'lindi. Tadqiqotimiz natijasi o'laroq, mohir datorchi sozandalar o'ziga xos ijro uslubini hamda ijro maktabini yaratganliklari yanada oydinlashdi. Qayd etish joizki, ayrim ustoz sozandalarning ijro uslublari o'z davrida dong taratgan bo'lsada, biroq bugungi kunga qadar bizgacha to'liq audio – video ko'rinishida yetib kelmagan yoki mahalliy hududlar o'rtasidagi ijodiy hamkorlik aloqalari kengayganligi bois, boshqa sozandalar uslubiga qorishib ketgan bo'lishi mumkin. Jumladan, Eshon Rahmatxo'ja, Sultonxon Hakimov, Ilhomjon datorchi, Abdusoat Vahobov, Usta Ro'zimatxon Isaboyev, Rizqi Rajabiy, Yunus Rajabiy, Komiljon Jabborov kabi sozandalarning ijro uslubini aniq dalillar asosida tahlil qilishning imkoni mavjud emas. Shuningdek, Mahmud Yunusov, Zokirjon Obidovlarning ijro uslublari esa hozirgi kunda mavjud emas. Lekin, Hoji Abdulaziz Rasulov kabi o'z xonishlariga tanbur-dutor chertib, hofizlarning jo'rnavozlik qilish an'anasi, Orif Qosimov, Faxriddin Sodiqov, Turg'un Alimatovlarning ijro maktablari mudom davom etib kelmoqda.

Toshkent dator ijrochilik an'alarining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri – **Abdusoat Vahobov** (1875–1934) edi. O'zbek xalq kuylari va Farg'ona-Toshkent maqomlarini mohirona ijro etishga muvaffaq bo'lgan. Abdusoat Vahobov ko'plab sozandalarga Toshkent musiqa texnikumida dator cholg'usidan dars beradi. Jumladan, *Orif Qosimov va Fahriddin Sodiqovlar uning shogirdlaridan sanaladilar.*

Toshkent dator ijrochilik an'analari shakllanishida **Orif Qosimovning** (1909 – 2001) ham xizmatlari beqiyosdir. Orif Qosimov talqinida yangragan kuylarni tinglar ekanmiz, bunda o'ng qo'l asosida amalga oshiriladigan oddiy, terma va teskari kabi zarblar muhim o'rin egallagan. Bu maktabning davomchilari sifatida *Zokirjon Obidov, G'ulomjon Qo'chqorov, Boqijon Raximjonov va Sulton Qosimovlarni* aytib o'tish joiz.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi **Faxriddin Sodiqovning** (1914–1977) aynan dator cholg'usidagi ijro uslubi audio yozuvlar orqali emas, balki shogirdi *Malika Ziyayevaning* "ustoz-shogird" an'analari asosida bugungi kunga qadar yetib kelmoqda. O'zbekiston teleradio kompaniyasining "Oltin fondi"da sozandaning bastakorlik ijodiga mansub "Yor bilib" ashulasi Hadiya Yusupova tomonidan ijro etilgan. Ushbu asarga aynan dutorda jo'rnavoz bo'lganligi og'zaki suhbatlardan ma'lum bo'ldi. Mazkur asarning audio yozuvi orqali sozandaning ijro uslubi tahlil qilindi. F.Sodiqov dator ijrochilik maktabining davomchilari O'zbekiston davlat konservatoriyasining dator sinfida tahsil olgan shogirdlari sifatida *Mirsodiq Ergashev*⁵⁴, *Abdurahim Hamidov, Akmal Rajabov va Malika Ziyayeva*⁵⁵larni keltirish mumkin.

Toshkent dator ijrochilik an'alarining yorqin namoyandalaridan yana biri **Turg'un Alimatovdir** (1922–2008). Turg'un Alimatov ijro maktabining o'ziga xos

⁵⁴ Ergashev M. Hayotim dutori. Monografiya. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. – B. 30.

⁵⁵ Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. Monografiya / Ilmiy muharrir O.Ibrohimov. – Toshkent: UNESCO, 2005. – B. 175.

jihatlari shundaki, kuyni ijro etish jarayonida asosiy e'tibor chap qo'l harakatiga berilishini kuzatamiz. Masalan, chap qo'ldagi har bir pardada oddiy tovush hosil qilinsada, biroq pardadan-pardaga *glissando* qilib o'tish, melizmlardan o'ng qo'l zarblari bilan o'zaro uzviy bog'lagan holda keng foydalanilishini ko'ramiz. Bugungi kunda T.Alimatov ijro maktabining yorqin namoyandalari qatorida farzandi *Alisher Alimatov* va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist *Abdulla Shomagrupovni* keltirish o'rinli.

Ushbu bobning **"Ijrochilik uslublari"** deb nomlangan ikkinchi bo'limida Toshkent dutor ijrochilik an'analari namoyandalarining ijro uslublari yoritiladi.

Har bir sozandaning o'ziga xos ijro uslubi, ularning ijro talqini, chap va o'ng qo'l harakatlarida musiqiy ifoda vositalaridan foydalanishiga ko'ra aniqlandi. Uslublarning farqli tomonlari aksariyat hollarda sozandaning ijrosida, amalga oshiriladigan zarblarida va tovush hosil qilishida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, bugungi kun amaliyotida sozanda asarni maromiga yetkazib ijro qilgani bois, uning nomi bilan e'tirof etilishi odatga aylangan. Shuni ham aytish kerakki, sozandalarning ijro uslubi natijasida asarning turli variantlari ham yuzaga keladi. Masalan, xalq orasida keng tarqalgan "Tanavor-1" kuyining bir qator variantlari dutor ijrochiligida ham mavjuddir. Xususan, T.Alimatov "Tanavor"i, O.Qosimov "Tanavor"i yoki T.Alimatov, O.Qosimov va A.Hamidov ijrolarida "Rohat" kuyining ham turlicha talqini mavjuddir. Yana bir misol tariqasida o'zbek xalq kuyi hisoblangan "Dutor Bayoti" ham A.Hamidov va E.Shukrullayev tomonidan o'zgacha talqin etiladi. Bu esa, o'z o'rnida dutor ijrochiligida bir nechta uslub va maktablarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Orif Qosimovning ijro uslubiga nazar tashlar ekanmiz, kuchli hissaga beriladigan zarblarni alohida bo'rttirib ijro etish hamda mordent, qo'shmordent, chizilgan mordent va forshlaglardan keng qamrovda foydalanishi bilan xarakterlanadi. Sozandaning ijrosida chap qo'l asosida hosil qilinuvchi miyang', tovushni uzoq sadolantirishlar, vibratsiya (to'lqinlantirish) kabi bezaklar deyarli uchramaydi. Lekin, mumtoz kuylarning xarakteriga xoslikni o'ng qo'l barmoqlarida zarblarni mayin, muloyimlik bilan amalga oshiriladi.

Fahriddin Sodiqovning ijro uslubi va bastakorlik asarlari aynan shogirdlar orqali ma'naviy meros sifatida yetib keldi. Ma'lumki, F.Sodiqovning ijro uslubi Malika Ziyayeva tomonidan maxsus belgilar asosida ishlab chiqildi. M.Ziyayevaning xotirlashicha, har bir pardaga jilo berish, ortiqcha zarblarni qo'llamaslik va kuyni mayin, yengil ijro etishga katta ahamiyat qaratiladi. "Har bir pardalarni *melizmlar* negizida ifodalab, chap qo'l bilan ifodalanuvchi notalar va ularning cho'zimlari zarbsiz sadolantirish yordamida mayinlik bilan aks ettirilgan"⁵⁶.

O'zbekiston xalq artisti, professor **Turg'un Alimatovning** ijro uslubiga xos jihatlari tanbur va dutor sozlarining hamohangligi, o'ng va chap qo'l barmoqlarining ohista harakatlanishi, tovushning mayin, muloyim yangrashi bilan izohlanadi. Chap qo'l harakatlarida melizmlarni ustalik bilan qo'llagan holda kuy xarakterini ko'rsatishga intiladi. Chap qo'l barmoqlarida sadolarning davomiyligi – nolish, vibratsiya (to'lqinlatish), trel (bidratma) kabi musiqiy bezaklar hamda o'ng qo'l barmoqlari orqali talqin etiladigan terma, o'rama zarblar tekis, ravon va mukammal

⁵⁶ Ziyayeva M. Dutor. O'quv uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Tahrir-nashriyot bo'limi, 2008. – B. 8, 9.

darajada amalga oshiriladi.

Toshkent ijro an'analarining xassos sozandalaridan biri – **Mahmud Yunusov** (1912–1996) edi. Uning talqinida chap qo'l barmoqlari orqali kuyning xarakteridan kelib chiqqan holda mordent (sayqal) va nolish kabi musiqiy bezaklardan unumli foydalanilgan. O'ng qo'l barmoqlarida – shahdam va aniq harakatlanish, kuyning ruhiyatiga mos dinamik xarakter berish kuzatiladi. Uning ijro uslubida "o'ng qo'l harakatining to'g'riligi, bir xillik xususiyat kasb etishi, elastik harakatlardan va mayda zarblardan mustasno ekanligi turadi. Lekin uslubning muvaffaqiyati va xalqqa manzur bo'lishi chap qo'l ijro jozibasida mujassamlashgan"⁵⁷.

